

# **BUXORO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

## **2024- YIL YANVAR-DEKABR**



## Buxoro viloyatida 2024- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - 48 961,2 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati - 145,1**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **48 961,2** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan **145,1** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **40 401,9** mlrd. so'm yoki **82,5 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **6 943,1** mlrd. so'm, yoki **14,2 %** i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **3 308,6** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **6,8 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **45 652,6** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **93,2 %** ni tashkil qildi.



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
<b>Jami viloyat</b>	<b>48 961,2</b>	<b>2,2</b>	<b>7,8</b>	<b>6,4</b>	<b>1,0</b>	<b>82,5</b>	<b>0,1</b>	<b>-</b>
Buxoro sh.	6 650,4	5,5	20,5	7,2	1,4	65,0	0,4	-
Kogon sh.	204,1	7,3	25,9	27,1	0,3	38,7	0,7	-
Olot	2 082,0	2,6	2,6	12,2	-	82,6	-	-
Buxoro	3 772,9	2,8	4,2	6,2	3,0	83,8	-	-
Vobkent	935,2	3,2	13,4	24,1	1,0	56,2	2,1	-
G'ijduvon	7 834,2	0,7	2,5	5,0	0,7	91,1	-	-
Kogon	1 491,0	6,4	17,3	15,0	2,9	58,4	-	-
Qorako'l	12 305,9	0,7	2,4	2,0	0,1	94,8	-	-
Qorovulbozor	3 640,9	0,3	11,1	1,5	0,2	86,9	-	-
Peshko'	5 147,3	0,4	1,1	5,1	-	93,4	-	-
Romitan	3 498,5	4,0	18,9	8,1	2,2	66,8	-	-
Jondor	628,3	7,4	17,7	39,9	5,5	29,2	0,3	-
Shofirkon	770,5	4,8	8,8	23,2	6,9	56,2	0,1	-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish  
manbalari bo'yicha tarkibi**


	Mrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>48 961,2</b>	<b>145,1</b>	<b>100</b>
<b><i>Markazlashgan:</i></b>	<b>3 279,3</b>	<b>91,1</b>	<b>6,7</b>
Respublika byudjeti	1 055,1	74,2	2,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	64,1	79,0	0,1
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	2 160,1	108,9	4,4
<b><i>Markazlashmagan:</i></b>	<b>45 681,9</b>	<b>151,6</b>	<b>93,3</b>
Korxonalar mablag'i	3 806,3	92,1	7,8
Aholi mablag'i	3 136,8	103,1	6,4
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	38 241,8	171,1	78,1
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	497,0	82,4	1,0

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da


### Markazlashgan



### Markazlashmagan




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **16 909,7** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **34,5** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **27 547,8** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **56,3** % i) va boshqa xarajatlarga **4 503,7** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **9,2** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **17 132,4** mlrd. so'm o'zlashtirilgan, yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **35,0** % ni tashkil etmoqda.


Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqarish sanoatiga **28,4** % (yoki **13 890,6** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **10,2** % (yoki **4 995,6** mlrd. so'm), tashish va saqlash faoliyati **7,3** (yoki **3 574,7** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **4,9** % (yoki **2 412,4** mlrd. so'm), qurilishga **3,4** % (yoki **1 664,8** mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga **2,9** % (yoki **1 436,7** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **2,8** % (yoki **1 350,2** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **1,1** % (yoki



546,6 mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **1,0 %** (yoki **484,3** mlrd. so'm), ta'limga **0,7 %** (yoki **327,4** mlrd. so'm), boshqa faoliyat turlariga **2,3 %** (yoki **1 145,4** mlrd. so'm) to'g'ri keladi.

Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.


### Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2024- yil yanvar-dekabr oylarida **40 401,9** mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **82,5 %** i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **166,0** foizni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **25 301,1** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **62,6 %** ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **15 100,7** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **37,4 %** ni tashkil qildi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo tarmog'iga **16 941,7** (yoki **41,9** %), ishlab chiqarish sanoatiga **13 481,4** mlrd. so'm (yoki **33,4** %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'iga **4 570,7** mlrd. so'm (yoki **11,3** %), tashish va saqlashga **2 179,3** mlrd. so'm (yoki **5,4** %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga **1 315,1** mlrd. so'm (yoki **3,3** %), qurilishga **816,8** mlrd. so'm (yoki **2,0** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **471,1** mlrd. so'm (yoki **1,2** %) va boshqa faoliyat turlariga **625,8** mlrd. so'm (yoki **1,5** %) to'g'ri keladi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. soʻmda)

	Jami investitsiya va kreditlar	Shu jumladan:		
		Toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar	Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida boʻlgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
<b>Jami</b>	<b>40 401,9</b>	<b>22 977,4</b>	<b>2 160,0</b>	<b>15 264,5</b>
Buxoro sh	4 322,4	2 009,0	1 646,2	667,2
Kogon sh	79,1	9,6	21,4	48,1
Olot	1 720,3	1 389,5	154,3	176,5
Buxoro	3 159,9	1 061,3	3,5	2 095,1
Vobkent	526,0	183,8	18,2	324,0
Gʻijduvon	7 135,7	6 903,4	14,7	217,6
Kogon	870,9	361,7	56,8	452,4
Qorakoʻl	11 661,2	3 176,9	-	8 484,3
Qorovulbozor	3 165,7	2 466,8	-	698,9
Peshkoʻ	4 808,3	4 563,0	233,2	12,1
Romitan	2 335,6	390,6	-	1 945,0
Jondor	183,8	41,7	-	142,1
Shofirkon	433,0	420,1	11,7	1,2

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Qorako'l tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **12 305,9** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **4,2 m.** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni G'ijduvon tumani egalladi. O'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **7 834,2** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **152,8** foizni tashkil qildi. Buxoro shahri **6 650,4** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan **131,7** foizni tashkil qildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming soʻmda	Oʻsish surʼati, % da
<b>Jami</b>	<b>23 761,8</b>	<b>142,8</b>
Buxoro sh	22 361,8	129,2
Kogon sh	3 134,8	48,1
Olot	19 810,0	186,7
Buxoro	20 949,0	164,2
Vobkent	6 238,8	89,5
Gʻijduvon	24 105,0	150,4
Kogon	17 459,3	75,6
Qorakoʻl	71 091,5	4,1 m.
Qorovulbozor	181 140,0	89,7
Peshkoʻ	38 906,2	113,1
Romitan	22 955,9	78,4
Jondor	3 356,2	102,4
Shofirkon	4 111,5	190,3

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori koʻrsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **181 140,0** ming soʻmni, oʻsish surʼati **89,7** foizni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Qorakoʻl tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **71 091,5** ming soʻmni, oʻsish surʼati **4,1 m.** ni tashkil qildi. Peshkoʻ tumani uchinchi oʻrinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **38 906,2** ming soʻmni, oʻsish surʼati **113,1** foizni tashkil qildi.

## Obyektlarni ishga tushirish

2024- yilning yanvar – dekabr oylarida umumiy maydoni **1 475,0** ming kv.m. bo‘lgan **5 416** xonadonli **5 033** ta turar-joy ishga tushirildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **98,3** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **1 098,1** ming kv.m bo‘lgan **3 760** ta xonadonli **3 760** ta turar joylar qishloq joylariga to‘g‘ri keladi. (O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,2** %) Turar-joylarni qurilishiga **2 188,1** mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

*Aloqa telefoni: (65) 223-81-99*